MINTAQA IQTISODIYOTIDA KLASTERLAR IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Kadirov San'at Yuldashevich
Urganch Ranch universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD
https://doi.org/10.5281/zenodo.20273062

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mintaqa iqtisodiyotida klasterlar imkoniyatlarining mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, mavjud imkoniyatlari va ulardan samarali foydalanish yo'nalishlari yoritib berilgan. Shuningdek, mintaqa iqtisodiyotida klasterlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish yuzasidan xulosa yoritilgan.*

Аннотация*. В данной статье рассматриваются содержание, специфические особенности, существующие возможности и направления их эффективного использования в региональной экономике. Также приводятся выводы об эффективном использовании кластерных возможностей в региональной экономике.*

Abstract*. This article discusses the content, specific features, existing opportunities and directions for their effective use in the regional economy. It also provides a conclusion on the effective use of cluster opportunities in the regional economy.*

Kalit so'zlar. *Mintaqa, klaster, imkoniyat, yo'nalish, samaradorlik, rivojlantirish, innovatsiya.*

Ключевые слова*. Регион, кластер, возможность, направление, эффективность, развитие, инновации.*

Key words*. Region, cluster, opportunity, direction, efficiency, development, innovation.*

Kirish. Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda klaster yondashuvi zamonaviy va samarali mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Chunki, klasterlar ma'lum bir hududda joylashgan, o'zaro bog'liq ishlab chiqaruvchilar, ta'lim va ilmiy muassasalar hamda xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar majmuasidir. Ushbu yondashuvga ko'ra, raqobat ustunliklarini shakllantirishda klasterlar muhim rol o'ynaydi. Mintaqalar iqtisodiyotida klasterlarning rivojlanishi esa hududlarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladi. Bu orqali tarmoqlarning mintaqaviy konsentratsiyasi shakllanadi va mintaqada firmalar uchun yuqori raqobatbardosh ustunliklarni shakllantiradi. Ushbu klasterlar mahalliy resurslardan samarali foydalanish va ichki bozorni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mintaqa iqtisodiyotida klasterlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Ya'ni, tadqiqotlarga asosan, klasterlar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ta'lim, ilm-fan va boshqa sohalardagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning hududiy jihatdan yaqinligi va o'zaro bog'liqligiga asoslanadi [1]. Ushbu bog'liqlik klasterlarning mavjud imkoniyatlarini belgilaydi. Yana bir tadqiqotlarga asosan, klasterlarda erishilgan tarmoq samarasi mavjud ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirib, natijada innovatsion sinergiya mahsulot xilma-xilligini kengaytirishga olib keladi [2]. Bu orqali klasterlar iqtisodiyotning turli sohalarida shakllanishi mumkin bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning hududiy guruhlashuvini belgilaydi. Boshqa tadqiqotlarga ko'ra, klasterlar orqali yangi iqtisodiyot sharoitida globallashuv, axborotlashtirish va innovatsiyalar taraqqiy qiladi hamda

bu iqtisodiy rivojlanishi amalga oshiriladi [3]. Ya'ni, klasterlar mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va mintaqaning raqobatbardoshligini oshirishga qaratiladi.

Yana boshqa bir tadqiqotlarda klasterlar birlashishga qaror qilgan institutlarning rejalashtirilgan natijalari, darajasi, mezonlari va samaradorlikni belgilaydigan rivojlanish dasturi bo'lishi qayd etiladi [4]. Unga ko'ra, klasterli yondashuv ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mintaqaviy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va aholi farovonligini oshirish sharti bo'lib xizmat qiladi. Boshqa tadqiqotlarga binoan, klasterli yondashuv yangi boshqaruv texnologiyasi bo'lib, u alohida hududlar, tarmoqlar va davlatlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi [5]. Bu borada klaster klasterli yondashuv asosida tashkil etiladi. Yana boshqa xil tadqiqotlarga asosan, klasterlar mintaqa, sektor, resurslar va klaster ishtirokchilari ehtiyojlariga qarab barcha shakl va o'lchamlarda bo'ladi [6]. Unga ko'ra, klasterlarni tashkil etish uni samarali boshqarish asosida ta'minlanishi lozim. Boshqa tadqiqotlarda esa klasterlar tarmoq ichida kooperatsiyani kuchaytirib, korxonalar o'rtasida resurslardan samarali foydalanish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi [7]. Unga asosan, klasterlarni rivojlantirish mamlakat iqtisodiy tarmoqlarini asosiy imkoniyatini belgilaydi.

Tahlil va natijalar. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, klasterlar mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, eksport salohiyatini kuchaytiradi va yangi ish o'rinlari yaratadi. Shu bois, klaster imkoniyatlaridan keng foydalanish hududiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Mintaqalarda klaster siyosati faol amalga oshirilmoqda. Bu borada paxta-to'qimachilik klasterlari soni 100 dan ortiqni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligida klasterlar qamrovi 70 % dan ziyod. To'qimachilik mahsulotlari eksportida klasterlar ulushi esa 60 % gacha ulushga ega. Ushbu klasterlar orqali minglab yangi ish o'rinlari yaratilgan. Ayrim hududlarda (Farg'ona, Samarqand va Buxoro viloyatlari) klasterlar hisobiga sanoat ishlab chiqarish hajmi sezilarli oshgan.

So'nggi yillarda klaster yondashuvi dunyo va milliy iqtisodiyotlarda keng qo'llanilmoqda. Tahlillarga ko'ra, rivojlangan davlatlarda klasterlar hissasi yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 40-60 % ini tashkil etadi. Yevropa davlatlarida sanoat korxonalarining 50 % dan ortig'i klaster tizimida faoliyat yuritadi. Klasterlar joriy etilgan hududlarda mehnat unumdorligi o'rtacha 20-30 % ga yuqoridir. Innovatsion mahsulotlar ulushi esa klaster hududlarida 1,5-2 barobar ko'proqni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar klasterlar iqtisodiy o'sishning muhim drayveri ekanligini ko'rsatadi. Klaster tizimini rivojlantirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini ko'paytirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu borada davlat klasterlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga intiladi. Ushbu yo'nalishdagi muvaffaqiyatlar ko'p jihatdan qiyinchiliklarni yengib o'tish, samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga bog'liq bo'ladi.

Avvalo, ushbu klasterlar mintaqa iqtisodiyotida quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Klasterlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va qo'shimcha qiymat yaratish imkonini beradi. Bu esa yalpi hududiy mahsulotning o'sishiga olib keladi.

- bandlikni oshirish. Klasterlar doirasida yangi ish o'rinlari yaratiladi. Ayniqsa, qishloq hududlarida aholi bandligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

- eksport salohiyatini kuchaytirish. Klasterlar mahsulotlarni xalqaro bozorlarga chiqarish imkonini kengaytiradi. Bu valyuta tushumlarini oshirishga xizmat qiladi.

- innovatsiyalarni rivojlantirish. Ilmiy muassasalar va korxonalar o‘rtasidagi hamkorlik yangi texnologiyalarni joriy etishga sharoit yaratadi.

Shuningdek, mintaqada klaster imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun quyidagi yo‘nalishlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi:

- ixtisoslashuvni aniq belgilash. Har bir hudud o‘z resurslari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, ma’lum sohaga ixtisoslashishi lozim.

- infratuzilmani rivojlantirish. Transport, logistika va kommunikatsiya tizimlarini takomillashtirish klaster samaradorligini oshiradi.

- investitsiyalarni jalb qilish. Xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish klasterlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi.

- kadrlar tayyorlash. Malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash klaster rivojining muhim sharti bo‘lib qaraladi.

- raqamlashtirish. Axborot texnologiyalarini joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi va boshqaruvni samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda klaster siyosati faol rivojlanmoqda. Ushbu klasterlar orqali xom ashyoni chuqur qayta ishlash, eksport hajmini oshirish va yangi ish o‘rinlari yaratishga erishilmoqda. Unga asosan, klasterlar samaradorligini oshirish raqobat muhitini rivojlantirishga, ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlashga, raqamli texnologiyalarni joriy etishga va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishga imkon yaratadi. Shularga asosan, mintaqa iqtisodiyotida klasterlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish quyidagicha tavsiflanadi (1-jadval).

1-jadval

Mintaqa iqtisodiyotida klasterlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish

№	Yo‘nalishlar	Mazmuni	Kutiladigan natija
1	Ixtisoslashuvni belgilash	Hudud resurslariga mos soha tanlash	Samaradorlik va raqobatbardoshlik oshadi
2	Infratuzilmani rivojlantirish	Transport, logistika va energiya tizimlarini yaxshilash	Ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi
3	Investitsiyalarni jalb qilish	Xorijiy va mahalliy sarmoyalarni kiritish	Yangi loyihalar va ish o‘rinlari yaratiladi
4	Innovatsiyalarni joriy etish	Yangi texnologiyalar va ilmiy ishlanmalarni tatbiq qilish	Mahsulot sifati va hajmi oshadi
5	Kadrlar tayyorlash	Mutaxassislarni o‘qitish va malakasini oshirish	Samarali mehnat resurslari shakllanadi
6	Raqamlashtirish	Axborot texnologiyalarini joriy qilish	Boshqaruv va ishlab chiqarish optimallashadi
7	Eksportni rivojlantirish	Tashqi bozorlarga chiqishni qo‘llab-quvvatlash	Valyuta tushumi oshadi
8	Kooperatsiyani kuchaytirish	Korxonalar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish	Qo‘shimcha qiymat zanjiri shakllanadi
9	Davlat qo‘llab-quvvatlashi	Imtiyozlar va dasturlar orqali yordam ko‘rsatish	Klaster barqaror rivojlanadi
10	Ilmiy-tadqiqotni rivojlantirish	Ilmiy markazlar bilan hamkorlik	Innovatsion mahsulotlar yaratiladi

Ushbu 1-jadvalga asosan, mintaqa iqtisodiyotida klaster imkoniyatlaridan samarali foydalanish kompleks yondashuvni talab etadi. Eng avvalo, bu borada hududning tabiiy va iqtisodiy salohiyatiga mos ixtisoslashuvni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu asosda infratuzilmani rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish jarayonlari takomillashtiriladi. Bu bo‘ymcha innovatsiyalar va raqamlashtirishni joriy etish klaster samaradorligini oshirishda asosiy omili bo‘lib hisoblanadi. Malakali kadrlar tayyorlash esa ushbu jarayonning barqarorligini ta’minlaydi. Korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish orqali qo‘shimcha qiymat zanjiri shakllanib, mahsulot raqobatbardoshligi ortadi. Ular bilan birgalikda, davlat tomonidan beriladigan qo‘llab-quvvatlash, imtiyozlar va strategik dasturlar klasterlarning rivojlanishini tezlashtiradi. Ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish innovatsion mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi. Mazkur yo‘nalishlarni uyg‘un ravishda amalga oshirish mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va aholi farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa. Mintaqa iqtisodiyotida klaster imkoniyatlaridan samarali foydalanish hududiy rivojlanishning muhim sharti bo‘lib hisoblanadi. Klaster yondashuvi resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, klasterlarni kompleks rivojlantirish va ularning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish zamonaviy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishi bo‘lib hisoblanadi. Klasterlarning rivojlanishi mintaqalar iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Ular iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi, innovatsiyalarni rivojlantiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi va global raqobatbardoshlikni oshiradi. Mintaqaviy hukumatlar klasterlarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o‘sish va farovonlikka erishishlari mumkin. Bu borada klasterlar imkoniyatlari texnologik taraqqiyot, global iqtisodiy o‘zgarishlar va jamiyatning yangi ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ushbu yo‘nalishlar klasterlarning innovatsion rivojlanishiga turtki beradi va mintaqalarning iqtisodiy o‘sishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga va aholi farovonligining oshishiga xizmat qiladi. Bu borada klasterlar tarkibi o‘zaro bog‘liq elementlardan iborat murakkab tizim bo‘lib, u orqali iqtisodiy, innovatsion va ijtimoiy imkoniyatlar kengayadi. Mintaqalarda klaster tarkibini to‘g‘ri shakllantirish va uni samarali boshqarish iqtisodiyot barqaror rivojlanish sharti bo‘lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мочальников В.Н., Анохина М.Е., Коростелев Д.Г. Отраслевые особенности кластеризации экономики. // Вопросы экономики и права, 2014, №7. - с. 74.
2. Смородинская Н.В., Малыгин В.Е., Катуков Д.Д. Как укрепить конкурентоспособность в условиях глобальных вызовов: кластерный подход. / Под ред. Н.В. Смородинской. - М.: Институт экономики РАН, 2015. - с. 38.
3. Колесников А.М., Хазалия Н.А. Анализ эволюции понятия «кластер». Подходы к классификации. // Научный журнал НИУ ИТМО. Серия «Экономика и экологический менеджмент», №4, 2016. – с. 19.
4. Mardonov F.Sh. Oliy ta’limni rivojlantirishda klasterning o‘rni. // Academic research in educational sciences, Volume2, Issue4, 2021. - 714 b.
5. Abduvaliyev A.A. Milliy iqtisodiyotda klasterlarni rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili. // Iqtisod va moliya, 2017, 7. - 28 b.
6. Aboriginal and Torres Strait Islander. Principles of enterprise clustering. SUMMARY BOOKLET. - p. 5.
7. Turopova N., Raxmatov D. Mintaqaviy iqtisodiyotda sanoat klasterlarining rivoji va istiqbollari. // Journal of Universal Science Research, 2024, Volume2, Issue11. - 269 b.